

## Sultonshoh Xorazmshoh



# Sultonshoh Xorazmshoh

**Sultonshoh Mahmud, Jaloliddin Mahmud Sultonshoh**

(? – 1193 yil, 19 sentyabr)

(1172-1193)

*Anushteginiylar* sulolasidan bo'lgan *Xorazmshohlar davlati* shahzodasi. **Elarslon** va Turkon xotuning kenja o'g'li. Sultonshohning akasi **Takash** Jand viloyatida voliy bo'lib turgani uchun otasi o'limi oldidan Sultonshohni valiahd etib tayinlagan. Ammo, davlat va harbiy ishlarga uning onasi **Turkon xotun** bosh bo'lgan. Takash Sultonshohga bo'ysunishdan bosh tortgan, u *qoraxitoylar* yordamida Gurganjga qo'shin tortgan. Sultonshoh onasi bilan Nishopurga qochib borib, **Muayyid ad-davla Oy-Abo** huzuridan panohtopgan.

1172 yil 11-dekabrda Takash rasman Xorazm taxtiga o'tirgan, biroq Sultonshoh bilan Takash o'rtasidagi kurash yana 20 yil davom etgan. Sultonshoh Xurosondagi bir qancha viloyat, shaharlarni egallab, Marv shahrini o'ziga qarorgoh qilgan. U Takashga qarshi kurashda goh qoraxitoylardan, goh quriylardan ko'mak olib turgan.

2023-10-29 23:33:40